



YO'L-TRANSPORT HODISALARI KELIB CHIQISH SABABLARI
VA ULARDAN KEYINGI XATTI-HARAKATLAR

Nazarov Anvar Aripovich

anazarov_07@mail.ru

(Prof. Ph.D., TDTrU)

Suyarov Nurali Jovli o'g'li

nuralisuyarov19@gmail.com

Toshkent Davlat Transport Universiteti

Annotatsiya: Maqolada avtomobili yo'llarida sodir etildigan yo'l transport hodisalarining kelib kelib chiqish sabablarini o'rghanish va ularni kamaytirish yoki og'ir oqibatlarini kamaytirish yo'llari ko'rib chiqildi. Avtomobil yo'llaridagi yo'l transport hodisalariga olib keluvchi mavjud kamchiliklar, hamda ularni bartaraf etish, harakat xavfsizligini oshirish, usullari ko'rib chiqildi. Maqolada yuqorida ko'zda tutilgan yunalishlar, shu bilan birga yo'l transport hodisasi natijasida tan jarohat hamda og'ir tan jarohat olish sabablari, baxtsiz hodisadan keyin tan jarohat olganlarga malakali tez tibbiy yordam ko'rsatish usullari ko'rib chiqildi. Shu bilan birga yo'l transport hodisalari sodir etilishi ehtimoli paydo bo'lganda og'ir tan jarohat olishni kamaytirish oldini oldini olish usullari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Avtomobil yo'llari, yo'llarni o'tkazuvchanligi, haydovchilar, transport oqimlari, transport vositasi, yo'l transporti, harakat xavfsizligi, to'xtash, tan jarohat, tez tibbiy yordam, baxtsiz hodisa, xavfsizlik kamari, harakat ishtirokchilar, haydovchi, yo'lovchilar, xavf, infratuzilma, nfratuzilma.



KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-190-sonli qarorida ta’kitlaganidek.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish sohasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, o‘limga olib kelgan yo‘l-transport hodisalarining soni hali ham yuqori bo‘lib, avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta’minlash tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Jumladan, yo‘l infratuzilmasini harakat xavfsizligini ta’minlashning zamonaviy talablariga to‘liq muvofiqlashtirish, ushbu sohadagi qoidabuzarliklarning barvaqt profilaktikasiga yo‘naltirilgan samarali tizimni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, inson omilini istisno qiluvchi raqamlı texnologiyalarni keng joriy etish talab etilmoqda.

Yo‘l-transport hodisasi bu — transport vositasining yo‘lda harakatlanish jarayonida va uning ishtirokida sodir bo‘lgan hodisa tufayli, fuqarolar vafot etgan yoki ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazilgan, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlangan yoxud boshqa moddiy zarar yetkazilgan hodisa. Yo‘l transport hodisasi hisoblanish uchun kamida uchta holat mavjud bo‘lishi kerak, bularga quyidagilar kiradi:

1-Transport vositasi harakatlanayotgan bo‘lishi;


2-Sodir bo‘lgan hodisa shu transport vositasi bilan bo‘g‘liq bo‘lishi;

3-Voqianing oqibati atamaning tarifida sanab o‘tilgan holatlariga mos kelishi;

Yuqorida aytib o‘tilgan atamaning tarifidan kelib chiqadigan bo‘lsak quyidagilar yo‘l transport hodisasi hisoblanmaydi, to‘xtab turgan transport vositasining tom qismida yoki boshqa qisimlarida qulab tushgan daraxtlar, qurilish



ishlari olib borilayorgan joylardagi yuk ko‘taruvchi avtokranlarning yuki tushub ketishi hamda shunga o‘xhash baxtsiz hodisalar yo‘l transport hodisasi hisoblanmaydi, aksincha bunday hodisalarni biz baxtsiz hodisa yoki texnik xavfsizlik talablariga amal qilmaslik hisoblanadi. Birgina misol qilib 2019-2020-yillarda 12 oy mobaynida sodir etilgan yo‘l transport hodisalarining umumiy holati hamda ularning hududlar kesimida taqsimlanishi (1-rasm) da ko‘zda tutilgan.



1-rasm 2019-2020-yillarda 12 oy mobaynida sodir etilgan yo‘l transport hodisalari



Eng asosiysi haydovchi yo'l transport hodisasini oldini olish uchun, yaqinlashib kelayotgan xavfni oldindan ko'ra bilishdir. Yo'l-transport hodisalarining asosiy sababi texnik nosozlik yoki yo'l harakatining noto'g'ri tashkil etilishi emas, balki yo'l harakati qatnashchilarining noto'g'ri harakatlaridir, lekin ushbu holat jiddiy oqibatlarga olib keladigan aniq xato emas, balki baxtsiz hodisalarning bir qismidir.

Ko'pgina hollarda, yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablariga psixologik sabablarham bor, ko'p haydovchilarning psixologik holati xavfli xattiharakatlarga olib keladi.

Xavf bu — yo'l harakati xavfsizligiga xavf soluvchi har qanday omil, harakat ishtirokchilarining psixologik holati yaxshi bo'lmasligi quyidagi qoida buzarliklarga olib keladi:

- Haydovchilar harakat tezlikni belgilangandan oshirishi;
- Haydovchilar quvib o'tish qoidalariiga amal qilmasliklari;
- Piyodalar yo'lning ko'rinishi yomon bo'lgan joylardan o'tishadi;
- Piyodalar harakatlanayotgan avtomobillar orasidagi yo'lni kesib o'tishadi;
- Yo'l harakati qoidalariiga ataylab e'tibor berilmaydi;
- Velosipedchilar yo'l harakati qoidalariini bilmasdan yo'l bo'y lab harakatlanishadi.

Xavf odatda ikki sababga ko'ra baxtsiz hodisaga olib keladi:

- Harakat qatnashchisi oldindan xavf borligidan ogohlantirilmaganligi;
- Inson xavf-xatardan xabardor bo'lishi mumkin, ammo ehtiyoitsizlik yoki qoidalarga rioya qilishni xohlamaydi.

Ko'pincha asosiy baxtsiz hodisaning sababi shundaki, harakat qatnashchilari xavf omillari mavjudligini yaxshi bilishadi, ammo baxtsiz hodisalar ulardan boshqa har kimga sodir bo'lishi mumkinligiga ishonishadi.

Yo'l harakatida xavfsizlik deganda haydovchi avtomobilni boshqarish vaqtida favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltirmaslik, agar shunday holat yuzaga kelsa,



xavfga nisbatan kerakli vaqitda, kerakli harakat xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rishi kerak. Bir so'z bilan aytganda, bu xavfdan qochish qobiliyatidir. Har qanday favqulodda vaziyatda muvaffaqiyatli harakat qila olish muhimdir.

Agar haydovchi avtohalokatdan oldin darhol to'qnashuvning oldini olish mumkin imkonsizligini anglasa, o'zi va yo'lovchilarhayotini himoya qilishga harakat qilishi zarur.

Agar biron sababga ko'ra harakat vaqtida transport vositasining orqa tomonida kelayotgan transport vositasi orqa tomoniga urilib ketmoqchi bo'lsa, haydovchi va yo'lovchilari o'rindiqning orqa tomoniga o'zini bosishga harakat qilishi hamda boshning orqa qismini bosh suyagiga bosish kerak bu esa bosh qismini og'ir tan jarohatini oldini oladi.

Agar transport vositasining old tomondan zarba berilish xavfi kutilayotgan bo'lsa va harak ishtirokchilari xavfsizlik kamarini taqqan bo'lsa, bunda harakat ishtirokchilari yuzini hamda ko'zini qo'llari va bilaklari bilan oldi tomondagi shuningdek yon tomondagi tashqi oyna bo'laklaridan himoya qilishga harakat qilishi kerak.

Agar avtomobilning orqa o'rindig'ida xavfsizlik kamarlari bo'lmasa, u holda zarbadan oldin yo'lovchilar gorizontal holatga o'rindiqqa joylashib olishi kerak.

Yo'l-transport hodisalarining oqibatlari va ko'zatilishi mumkin bo'lgan tan jarohatlar

Yo'l-transport hodisalari yo'l harakati ishtirokchilari uchun juda xavfli va o'g'ir oqibqtli tan jarohatlar bilan tugallanishi mumkin, ular juda xilma-xil bo'ladi. Misol tariqasida, voqja natijasida bir nechta suyak sinishi, yumshoq to'qimalarning kesilgan yaralari hamda ichki organlarning yorilishi bilan bog'liq. Avtohalokatlarda ko'p hollarda og'ir miya chayqalishidir. 20 km/soat tezlikda arzimasdekk ko'ringan tezlik bilan to'qnashganda ham zarba kuchi tananing tortishish kuchidan 6-7 marta oshib ketadi. Inson o'z kuchi bilan zARBANING oqibatlarini kamaytirolmaydi.



Agar mashinaning old qismi biron bir narsa bilan to‘qnashsa, tezlik keskin o‘zgaradi. To‘satdan tormozlash kapot, xavfsizlik kamarlari, xavfsizlik yostiqchalari va bolalar o‘rindig‘ining tekislanishi bilan yumshatiladi. Agar haydovchi va yo‘lovchilar xavfsizlik kamarlarini taqmagan bo‘lsalar, to‘qnashuv vaqtida ular xuddi shu tezlikda harakatlanishni davom ettiradigan va bor kuchlari bilan rul yoki asboblar panelini urganga o‘xshaydi. Orqa tomondan to‘qnashuv sodir bo‘lgan taqdirda, haydovchi va yo‘lovchilarning boshlari keskin orqaga tashlanadi, bu ko‘pincha servikal o‘murtqaga zarar etkazadi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘rindiqlar yaxshi bosh o‘rindiqlari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

Transport vositasi yon tomondan to‘qnashuvda haydovchi va yo‘lovchilar odatda kuchli zarb ta’sirida transport vositasi salonidan tashqariga chiqib ketadi, bu esa juda xavfli jarohatlarga olib kelishi mumkin buning oldini olish maqsadida haydovchi va yo‘lovchilar xavfsizlik kamarlardan foydalanishlari kerak, xavfsizlik kamarlaridan foydalanish yo‘l transporti hodisasi natijasida shikastlanishlarni 62–75% gacha kamaytirishi mumkin.

Yo‘l transport hodisasi sodir etilganda xavfsizlik kamarlaridan foydalangan holdaham jarohatlanish mumkin, ammo ular xavfsizlik kamarlarisiz olingan jarohatlarga qaraganda har doim engilroqdir.

Yo‘l-transport hodisasi natijasida avtomobil yonib ketishi mumkin. Buning asosiy sababi yonilg‘i yoki moyning oqishi va elektr tizimining shikastlanishi. Avtomobil yong‘inlari odatda dvigatel bo‘linmasidagi simlardan boshlanadi (uchqun paydo bo‘lish xavfi), chunki u juda yuqori haroratga ega va yonilg‘i bakida sizib chiqqanda sizib chiqayotgan yoqilg‘i yonib ketishi mumkin. Avtotransport vositalarida juda ko‘p yonuvchan materiallar (sim izolatsiyasi, yoqilg‘i, moylar, ichki bezaklar, shinalar) va yong‘inning tarqalish tezligi juda yuqori bo‘lgani uchun, odatda qutqaruv ishlari qiyinr kichadi.



Umuman olganda, turli xil xavf omillari tufayli yo‘l-transport hodisalari juda og‘ir oqibatlarga olib kelishi va har doim oldindan aytib bo‘lmaydigan bo‘lishi mumkinligini aytish mumkin, shuning uchun ularning oqibatlarini bartaraf etishdan ko‘ra, ularning oldini olish shubhasiz, osonroqdir. Shuning uchun haydovchilar hardoyim xavf yaqinlashayotganda ularni bartaraf etish choralarini oldindan ko‘rishi kerak.

Yo‘l haraki ishtirokchilari agar yo‘l-transport hodisasiga duch kelsa, ularn quyidagilarni bajarishi kerak:

- Iloji bo‘lsa, o‘t o‘chirgichni qo‘liga olishi, chunki to‘qnashuv natijasida avtomobilda yong‘in xavfi mavjud;
- Agar transport vositasida yong‘in paydo bo‘lsa, xavf tug‘dirmasdan jabrlanuvchilarni transport vositasidan tashqariga olib chiqish chorasini ko‘rish zarur;
- Baxtsiz hodisa sodir bo‘lganda hodisa natijasida jabirlanganlar mavjudligini aniqlash, hamda ularning holatini tekshirish, ya’ni nafas olishi, yurak urishini, ichki va tashqi jarohatlarni aniqlash;
- Jabrlanuvchi(lar) bilan gaplashish, ularning hushida ekanligini tekshirish;
- Tashqi qon ketishini to‘xtatish;
- Agar kerak bo‘lsa, hushiga keltirishni amalga oshirish;
- Boshqa yo‘l harakat qatnashchilaridan yordam so‘rash.

O‘zi bilmagan holda yo‘l-transport hodisasiga guvoh bo‘lgan shaxs o‘z zimmasiga katta mas’uliyatni oladi. Har bir inson jabrlanganlarga yordam berishga majburdir, lekin har kimning bunga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha bilim darajasi har xil. Birinchi yordamni qanday ko‘rsatishni kam odam biladi, ammo har bir kishi yordam so‘rab, ma’lum darajada yordam bera oladi.

Yo‘l transport hodisasi sodir etilgan joyda bo‘lgan shaxs, birinchi navbatda transport vositasida bo‘lgan o‘z hushida bo‘lgan odam(lar) bilan muloqot qilishi kerak.



Shu tariqa jabrlanganlar bor-yo‘qligi, hodisa ishtirokchilarining hushidami yoki yo‘qligini aniqlash mumkin. Agar mashinadagi odamlar muloqot qilish imkoniga ega bo‘lsa, yordam berayotgan shaxs ulardan hamma yaxshiligini so‘rashi kerak. Agar hech kim jiddiy jarohat olmasa, voqeа ishtirokchilari voqeа joyiga yo‘l patrol xizmati xodimlarini chaqirish yoki chaqirmsaslikni o‘zлari hal qilishlari kerak. Avtomobil shikastlangan bo‘lsa, yordam ko‘rsatishdan oldin yong‘in xavfini bartaraf etish kerak. Favqulodda transport vositasida yong‘inga yo‘l qo‘ymaslik uchun, iloji bo‘lsa, avtomobil akkumulyatoridan manfiy va musbat simni uzib qo‘yish kerak. Ko‘pincha buni qilish qiyin, chunki avtomobilning old qismi shikastlanadi. Har qanday uchqun paydo bo‘lishining oldini olishga harakat qilish zarurdir. Agar avtomobil yonib ketsa, uni o‘chirish uchun o‘t o‘chirgichdan foydalanish kerak. O‘t o‘chirgich barcha trsnsport vositalarida bo‘lishi kerak. Hozirda transport vositalari asosan 2 kg kukunli o‘t o‘chirish moslamalari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Yong‘in yoki yong‘in xavfi bo‘lsa, darhol o‘t o‘chirgichdan foydalanish kerak.

Avtotransportda yong‘in odatda dvigateл atrofidan boshlanadi. Eng samarali usul - o‘chirish vaqtida suv oqimini yong‘in bo‘layotgan tomonga yo‘naltirish va keyin olov yana alangalanmasligi uchun kaputni yopish kerak. Agar baxtsiz hodisa joyida bir kishi bo‘lsa va yong‘in mavjud bo‘lmasa, darhol jabrlanganlarga yordam berishni choralarini ko‘rish kerak.

Foydalilanilga adabiyotlar

1. Highway Capacity Manual. // TRB, Washington, DC, 2000. – 1134 p.
2. Капитанов В.Т. Шауро С.В. Методика расчета светофорного цикла. – М.: Изд-во ВНИИ БД МВД СССР, 1979. 49 с.
3. Клинковштейн Г.И. Организация дорожного движения. – М.: Транспорт, 1975. – 150 с.



4. Клинковштейн Г.И., Коноплянко В.И. Организация дорожного движения / МАДИ. – М., 1977. – 59 с.
5. Коноплянко В.И. Организация и безопасность дорожного движения / МАДИ. – М., 1983. – 240 с.
6. Кременец Ю.А. Технические средства регулирования дорожного движения. – М.: Транспорт, 1981. – 252 с.
7. Кременец Ю.А., Печерский М.П., Афанасьев М.Б. Технические средства организации дорожного движения. – М.: Академкнига, 2005. – 279 с.
8. Лобанов Е.М. и др. Проектирование и изыскание пересечений автомобильных дорог. – М.: Транспорт, 1972. – 232 с.
9. Лобанов Е.М., Сильянов В.В., Ситников Ю.М. Пропускная способность автомобильных дорог. – М.: Транспорт, 1970. – 150 с.
10. Aliyev A.A. Txay-yangi qo‘yliq ko‘chalari kesishmasida piyodalar oqimini tartibga solish 09.10.2024